

BOLALAR UCHUN MILLIY MEDIA KONTENT : RAQAMLI DAVRDA TALAB VA TARBIYAVIY YONDASHUVLAR

Muxabbat Beqqulova Muxamadali qizi

O'zJOKU 2- bosqich magistranti

ORCID: 0009-0003-3117-8397

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bolalar ommaviy axborot vositalarining milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Bolalar uchun mo'ljallangan OAVning asosiy vazifasi — yosh avlodni milliy o'zlik, til, madaniyat va urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, shu bilan birga zamonaviy media talablari bilan uyg'unlikda rivojlantirishdan iborat ekani yoritilgan. " Bolajon " telekanali va "Bek va Lola" multiseriali misolida milliylikning zamonaviy media formatlarida ifodalanish usullari ko'rsatilib, bolalar ongida milliy identitet, axloqiy fazilatlar hamda estetik didni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida milliy kontentga bo'lgan ehtiyoj, uning sifati va dolzarbligi tahlil qilinib, soha rivoji uchun amaliy takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari bolalar uchun milliy media kontentni yaratishda psixologik, tarbiyaviy va texnologik yondashuvlarning uyg'unligi zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *animatsion serial, axborot xavfsizligi, bolalar ommaviy axborot vositalari, media madaniyat, milliy identitet, milliy qadriyatlar, raqamli media.*

Kirish

Globallashuv sharoitida axborot oqimi, texnologik yangiliklar va internet tarmoqlari bolalar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalar ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalaridan biri esa yosh avlod ongida milliy o'zlikni shakllantirish, qadriyatlarimizni singdirish va shu bilan birga zamonaviy dunyo talablari bilan uyg'unlikda tarbiyalashdir.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash – xalqimiz kelajagining kafolatidir." Shu ma'noda, bolalar OAVlarida milliylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvi dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. OAVda bolalar uchun milliy kontentni rivojlantirish O'zbekiston kelajagi uchun ahamiyatlidir. Yosh avlod milliy kontent orqali o'zini jamiyatning bir qismi sifatida anglab, xafsiz va ishonchli his qilishadi. Milliy mavzularda yaratilgan asarlar, multfilmlar, o'yinlar bolalarning tafakkurini, tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. Tarixiy shaxslar, xalq ertaklari orqali milliy merosga mehr uygonadi.

Bugungi kun bolalari kechagi kundan farq qilishi, ularning yashash tarzi, o'y-fikrlari, orzu-umidlari va hatto muammolari ham o'zgacha ekanligi, endilikda, hech kimga sir bo'lmay qoldi. Hamon shunday ekan, ular bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan ishlar ham muttasil yangilanmog'i, davr va bolalar ruhiyatidagi o'zgarishlardan ortda qolmasligi kerak. (Yunusov, 2020, 17-b.)

Shu bois, bugungi bolalar avlodining ehtiyoj va qiziqishlarini chuqur o'rganish, ularning dunyoqarashiga mos tarbiyaviy hamda axboriy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan.

Bolalar OAVda milliylik konsepsiyasi

Milliylik — bu xalqning o'ziga xos qadriyatlari, tili, madaniyati, urf-odatlar, mentaliteti va tarixiy tajribasining ifodasidir. Bolalar ommaviy axborot vositalarida milliylik g'oyasi ularning mazmuni, obrazlari va kommunikatsion shakllarida o'z aksini topadi.

Bolalarda o'z xalqiga, tarixiga, tiliga urf-odatlariga nisbatan hurmat va g'urur tuyg'usini paydo qilish va uni saqlab qolish, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni singdirish o'zlikni shakllantirish uchun milliy kontent juda muhim.

Bolalar uchun mo'ljallangan OAV — teleko'rsatuvlar, multfilmlar va matbuot nashrlarida o'zbek tilining boy, ifodali va adabiy shakllaridan foydalanish muhim. Bu orqali bolalarda ona tiliga muhabbat, milliy o'zlik va madaniy xotira shakllanadi. Masalan, "Bolajon" telekanalidagi "Ertaklar olami" dasturida qahramonlarning tabiiy, xalqona nutqi orqali milliy obrazlar jonli ifodalanadi.

Bolalar OAV milliylikni ertaklar, afsonalar, xalq qahramonlari, shuningdek milliy urf-odatlar, xalq qo'shiqlari va o'yinlari asosida tasvirlaydi.

Bunday mazmun bolalarda o'z xalqiga sadoqat, axloqiy qadriyatlarni qadrlash, mehr-shafqat va halollik tuyg'ularini mustahkamlaydi. Masalan, Milliy obrazlar bolalar ongiga eng tez va samarali ta'sir etuvchi vositadir. "Bolajon" telekanalidagi "Ertaklar olami", "Quvnoq yulduzchalar" yoki "Zukko bolajon" (noyabr sonlari, 2025.) kabi dasturlarda xalqona, samimiy, ezgulikni targ'ib qiluvchi personajlar yaratilib, bolalar ongida yaxshilik va mehr insoniy qadriyat sifatida shakllanadi. YouTube'dagi "Bek va Lola" multiseriالى esa zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, milliy oilaviy qadriyatlarni, mehr-oqibat va hurmat g'oyalarini raqamli media vositasida zamonaviy estetikada yetkazadi.

Bugungi kunda milliylik va zamonaviylik bir-birini to'ldiruvchi hodisaga aylanmoqda. Bolalar OAVda kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli media va media madaniyat vositasida milliy qadriyatlar yangi talqinda ifodalanmoqda.

Masalan, "Bek va Lola" singari multiseriاللarda bolalar o'z tengdoshlari orqali oilaviy mehr, milliy urf-odatlar va zamonaviy axborot madaniyati o'rtasidagi uyg'unlikni ko'radi. ("Bek va Lola" - Kasblar, 2025)

Bolalar OAVda milliylikni saqlagan holda zamonaviy kommunikatsion shakllarni qo'llash — bu yosh avlodni o'z xalqining ma'naviy ildizlariga sadoqatli, zamon bilan hamnafas insonlar sifatida tarbiyalashning eng samarali yo'lidir.

Milliy obraz va qadriyatlar raqamli formatda ifodalansa, u nafaqat o'tmish merosini saqlaydi, balki bolalarga o'zligini anglash imkonini ham beradi.

"Bek va Lola" multiseriالى - milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi tarbiyaviy loyiha.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari va qo'llabquvvatlashlari bilan tayyorlanayotgan "Bek va Lola" — O'zbekistonda yaratilgan milliy animatsion serial bo'lib, ushbu multiseriالى bolalarning ongini sog'lom shakllantirish, ularni

milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va axloqiy fazilatlarni singdirishda muhim rol o'ynaydi. ("Bek va Lola" - Ekologiya, 2025.)

Multiserialning asosiy tarbiyaviy jihatlari: Do'stlik va o'zaro hurmat Bek va Lola o'rtasidagi mehr, do'stlik, bir-biriga yordam ko'rsatish holatlari orqali bolalarda insoniy munosabatlar, empatiya va do'stlik tushunchasi shakllanadi. Oila va ota-ona hurmatiga o'rgatadi. Serialda ota-ona, buva-buvi kabi obrazlar ishtiroki orqali oila muqaddasligi, otaonaga hurmat, katta-kichikka izzat g'oyalari ilgari suriladi. Milliy qadriyatlar va urf-odatlar targ'ibi O'zbek xalqining milliy kiyimlari, taomlari, marosimlari, bayramlari, xalq og'zaki ijodidan lavhalar ko'rsatiladi. Bu orqali bolalarda madaniy identitet shakllanadi. Axloqiy tarbiya beruvchi mavzular: To'g'rilik, halollik, bironing haqiga tegmaslik, va'daga vafod qilish kabi insoniy fazilatlar har bir seriyada turli voqealar orqali yoritiladi. Atrof-muhit va tabiatga mehr, tabiatni asrash, hayvonlarga mehr ko'rsatish, tozalikka rioya qilish mavzulari orqali ekologik tarbiyaga e'tibor qaratiladi. Har bir seriyada qahramonlar biror muammoga duch keladi va uni o'ylab topish, maslahatlashing, xulosa chiqarish orqali hal etadilar. Bu esa bolalarda ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarga to'g'ri yondashish ko'nikmasini rivojlantiradi. "Bek va Lola" multiseriali — zamonaviy shakldagi milliy-tarbiyaviy kontent namunasi bo'lib, u orqali bolalar milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, oilaviy munosabatlar haqida bilib oladi. U har bir bola uchun ma'naviy oзуqа, ota-onalar uchun esa ishonchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. ("Bek va Lola" - Dastyorlar, 2025)

Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida 2025-yil 15-may kuni qabul qilingan Qarorga asosan, (PQ- 183- COH) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi va markaz direktori etib taniqli rejissyor Jahongir Ahmedov tayinlandi va quyidagi vazifalar belgilandi:

Bolalarning tarbiyasi va sog'lig'iga salbiy ta'sir qiluvchi kontentni tahlil qilish;

Mahalliy ijodkorlarga milliy kontent yaratish bo'yicha buyurtmalar berish;

Soha uchun kadr tayyorlashni tashkil etish.

Ushbu qaror soha rivojiga muhim turtki bo'ladi. O'zbekistonda bolalar uchun milliy kontentni rivojlantirish nafaqat axborot xavfsizligini ta'minlash, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy rivoji, madaniy identiteti va milliy qadriyatlarga asoslangan ongini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiya, globallashtirish va axborot oqimining keskin kuchaygan bir davrida bolalarning ongiga yot g'oyalar kirib borayotganligi muammoli holatlarni yuzaga keltirmoqda. So'nggi yillarda bolalar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lsa-da, milliy kontent hajmi va sifati hali ham ehtiyoj darajasida emas. "Bek va Lola" multiseriali kabi loyihalar ijobiy namuna bo'lsa-da, sohada tizimli va keng ko'lamli yondashuvlar zarur (Beqqulova, 2025. 248 - b).

Shuningdek, bolalar auditoriyasi uchun yaratilayotgan ko'rsatuv, multfilm va o'yinlarning aksariyati xorijiy formatlarga tayanayotgani milliy o'ziga xoslikning to'laqonli ifodalanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, mahalliy ijodkorlar va media mutaxassislar oldida bolalar uchun mazmunan boy, estetik jihatdan zamonaviy, lekin milliy qadriyatlarga sodiq kontent yaratish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Media loyihalarda milliy g'oyalarni ifodalash, milliy kontentga ehtiyoj.

Zamonaviy axborot makonida milliylikni ifodalash masalasi O'zbekiston media tizimi uchun eng dolzarb yo'nalishlardan biridir. Chunki globallashuv va raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniyatni asrab-avaylash, ulami yangi shaklda namoyon etish zarurati kuchaymoqda. Media loyihalar — teleko'rsatuvlar, multfilmlar, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlardagi videoloyihalar orqali milliylikni yosh avlod ongiga zamonaviy uslubda yetkazish samarali vositaga aylanmoqda.

O'zbekiston OAVida yaratilayotgan ayrim loyihalar, jumladan, "Bek va Lola" multiseriali, "Bolajon" telekanalidagi milliy ko'rsatuvlar, "Kamalak yulduzlari" kabi dasturlar bolalarda milliy o'zlikni shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda. Ushbu media mahsulotlarda milliy kiyimlar, xalq og'zaki ijodi, oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar, xalqona so'z boyligi kabi unsurlar orqali milliylik tabiiy tarzda aks ettiriladi. Bu esa yosh tomoshabinlarda o'z xalqiga mehr, g'urur va sadoqat tuyg'usini kuchaytiradi.

Milliylikni media orqali ifodalashda asosiy maqsad — qadimiy madaniyat va zamonaviy hayot o'rtasida muvozanatni topishdir. Har bir media loyiha nafaqat axborot berishi, balki tarbiyaviy, estetik va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lishi zarur. Shu ma'noda, milliy g'oyaga tayanib yaratilgan, lekin zamonaviy dizayn va texnologiyalar bilan boyitilgan media mahsulotlar yosh avlod ongida milliy identitetni mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bolalar uchun milliy kontentni rivojlantirish bo'yicha jamoatchilikning fikri juda muhim. Milliy kontentning sifatini oshirish va ularning ehtiyojlariga mos, milliy qadriyatlar asosidagi kontentni shakllantirishda ota-onalarning fikr va qarashlarini o'rganib chiqish kerak. Telegram messengerida o'tkazilgan. "Bolalar uchun yaratilayotgan milliy kontent tahlili" mavzusidagi So'rovnomamizda quyidagi savollar o'rta tashlandi: 1. O'zbekistonda bolalar uchun milliy kontentning holati 56% ishtirokchilar kontent juda kam ekanini ta'kidlagan. Faqat 7% uni yetarli deb hisoblaydi. 28% bu borada yangiliklar bo'layotganini sezmoqda. 10% esa bu masala haqida xabarsiz. Aksariyat ota-onalar va foydalanuvchilar mavjud milliy kontentni yetarli deb hisoblamayapti. Bu esa kontent hajmi va sifati borasida jiddiy ishlash zarurligini ko'rsatadi.

2. Qaysi turdagi milliy kontent zarur? 43% — multfilmlar, 41% — kitoblar, 37% — turli platformalarda joylashtirilgan kontent, 14% — kinolar deb javob bergan. Multfilmlar va kitoblar eng ko'p ehtiyoj sezilgan turlar bo'lib, ayniqsa yosh bolalar uchun kontent ishlab chiqishda bu ikki yo'nalishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, kontentni raqamli platformalarda kengaytirish ham dolzarb. 3. Kontent qanday bo'lishi kerak? 69% — bolalar tushunadigan, sodda tilda bo'lishi kerak, 33% — milliy qadriyatlarni aks ettirishi zarur, 18% — zamonaviy formatda bo'lishini istaydi. Foydalanuvchilar kontentda bolalar tili va tushunchasiga mos yondashuvni ustuvor deb hisoblamoqda. Shu bilan birga, kontent tarbiyaviy qadriyatlarga boy va zamonaviy shakllarda taqdim etilishi kerak. So'rovnomadan maqsad: ota-onalarning talab va istaklarini o'rganish, bolalar uchun qanday turdagi milliy kontent afzalligini bilish, hozirgi kontentdan qoniqish darajasini aniqlash edi. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda bolalar uchun milliy kontentga talab yuqori, ammo taklif hanuzgacha bu

ehtiyojni to'liq qondira olmayapti. Foydalanuvchilar asosan multfilmlar, kitoblar va raqamli platformalarga joylashtirilgan kontentni istashmoqda. Kontent esa bolalar tushunadigan soddalikda, milliy qadriyatlarni aks ettirgan va zamonaviy formatda bo'lishi zarur. Bu natijalar asosida kontent ishlab chiqaruvchilarga strategik yo'nalishlar belgilash va ota-onalar ehtiyojlariga javob beruvchi loyihalar yaratish uchun muhim asos bo'la oladi. (Beqqulova, 2025, 247 - b.)

Xulosa qilib aytganda, media loyihalarda milliylikni ifodalash — bu nafaqat madaniy merosni asrab-avaylash, balki uni zamon talablari asosida qayta talqin qilish jarayonidir. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalqona tafakkurni zamonaviy axborot vositalari orqali targ'ib etish yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va ma'naviy barkamollik tuyg'ularini shakllantiradi. Shu bois, media sohasi vakillari oldida milliy ruhni ifodalay oladigan, lekin global media standartlariga mos innovatsion loyihalar yaratish vazifasi turibdi. Ana shundagina O'zbekiston media makoni milliy qadriyatlar bilan sug'orilgan, zamonaviy fikrlaydigan va ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalashda kuchli omilga aylanadi.

Amaliy tavsiyalar:

Milliy kontent markazida bolalar psixologlari va pedagoglar ishtirokini kuchaytirish;

Milliy multfilmlar uchun grantlar va tanlovlar tashkil etish;

Kuchli animatorlarni sohaga jalb qilish orqali milliy kontentni ko'paytirish;

Raqamli platformalarda (YouTube Kids, Telegram, TikTok) milliy formatdagi videolar uchun maxsus bolalar segmentini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beqqulova, M. (2025). Globallashuv davrida bolalar uchun milliy kontent: muammo, ehtiyoj va yechimlar. Til va adabiyot, (14). O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti.

2. Tong Yulduzi. (n.d.). Telegram kanali. Telegram. <https://t.me/tongyulduz>

3. Yunusov, M. (2020). Mustaqillik davrida O'zbekistonda bolalar jurnalistikasining taraqqiyoti: yutuqlar, muammolar va yechimlar (bosma nashrlar misolida) [Nomzodlik dissertatsiyasi]. Toshkent.

4. Bek va Lola. (2025, April 22). Bek va Lola – Kasblar [Video]. YouTube. <https://www.youtube.com/watch?v=nh7nJHyeWWA>

5. Bek va Lola. (2025, April 28). Bek va Lola – Ekologiya [Video]. YouTube. <https://www.youtube.com/watch?v=P9qNn89Q4J0>

6. Bek va Lola. (2025, May 3). Bek va Lola – Dastyorlar [Video]. YouTube. <https://www.youtube.com/watch?v=n0TMTQ3ik74>